

ABDULLA ORIPOV SHE`RLARIDA ONA VATAN MUJASSAM

Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani `16-umummiy o`rta ta`lim maktabi

boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Allamova Lola Aslonovna.

Anatassiya: *Shoirning o`z yo`li ,ijodagi falsafiylik,yurtimizdayashab o`tgan kunlari insonlarga hurmat e`zoz. Ular qoldirgan merosni avlodlarga yetkazish burchi.*

Kalit so`zlar:Ona vatanga muhabbat,rostlik ,ko`tarinkilik.

O`zbekiston respublikasi xalq shoiri,O`zbekiston xalq qahramoni ,jonkuyar shoir , davlat arbobi A.Oripov o`zbek she`riyatiga o`tgan asrning 60-yillarda kirib keldi .U dastlabki she`rlaridan boshlab milliy she`riyatni yangi poetik tafakkurining qaror topish yo`lida ijod qildi. A.Oripov she`rlarida yangicha qarashlar,kishilarning ruhiy olamidagi o`zgarishlar fikr va xatti harakat erkinligiga bo`lgan ehtiyoj,shoir sher`rlarining g`oyaviy mazmunini belgilab berdi. A.Oripov she`rlarini o`qir ekanmiz chuqur falsafiy fikrlashni ,hayotda ro`y beradigan voqea hodisalarga munosabatni ko`rasiz /Shu o`rinda “Tilla baliqch”, “Qo`riqxonona “Genetika” “Olomonga”kabi she`rlarida ham tassavur olami kengligini ko`rasiz.

Shoir she`rlarida ona tiliga muhabbatni birinchi o`rinda turadi.Har bir she`rida yurt taqdiri,millat iftixori bo`lmish,ajdodlarimizning millat g`ururi sha`ni ,qadr-qimmatiga qo`shgan hissasi haqida,shuningdek ming yillik tarix haqida so`zlab beradi.

Quyidagi she`rda biz keltirgan misollarni ko`rishimiz mumkin.

Yurtim senga she`r bitim bu kun,

Qiyosingni topmadim aslo.

Shoirilar bor, o`z yutin butin-

Olam aro atagan tanho,
Ular she`ri uchdi ko`p yiroq,
Qanotida kumush diyori,
Bir o`lka bor, bu dunyoda biroq
Bitilmagan dostondir bori.
Faqat ojiz qalamim manim ,
O`zbekiston, Vatanim manim.

Shoirimizning yana bir she`rida buyuk siymolarimiz A.Temur ,M.Ulug`bek,A.Navoiy , Beruniy kabi bobolarimiz bilan birga shoir o`z ilxom olgan ustozlari G`.G`ulom,Oybek,H.Olimjon kabi shoir ijodkoryozuvchilarni tilga oladi.O`z yurtidan g`ururlanish,faxrlanish,hislatlarini ko`ramiz.

Bundan tashqari shoir o`zi tug`ilib o`sgan joyi haqida “Qarshi qo`shig`ida” yozgan .Bu she`rni otasiga bag`ishlab yozgan.

Pomirday yuksalikdan teramga boqsam agar,
Ko`zimga ko`ringaydir, Vatanim ,Ona xalqim
Uning-ku quchog`ida cho`llardan qolmas asar,
Abadiy muzliklar ham gul ochib ketar balkim.A/Orip

Shoir o`zi orzu qilgandek ,Qarshi cho`li bugungi kunda gullab yashnamoqda.yangi sayilgozlar dam olish maskanlari qurilmoqda. A.Oripov ijodi rang-barangdir.u tarixiy shaxslar hayotini o`rganib,1998-yilda “Sohinqiron”drammasini yaratadi. Xalq shoiri bu asrida qariyb uchb asr davomida hukm surgan qudratli Temuriylar saltanatining asosini va XV asr sharq uyg`unlik davrining boshlanishiga ijtimoiy-siyosiy,iqtisodiy va madaniy sharoit yaratgan A.Temur obrazini yorqin gavdalandirgan. Mazkur asar Respublikamizning barcha teatrlarida va qardosh mamlakatlar sahnalarida katta muvaffaqiyat bilan o`ynaldi.A.Oripov buyuk shoir,benazir ijod sohibi,katta davlat arbobi bo`lish bilan birga O`zbekiston Rerspublikasi madhiyasini ham muallifi hamdir.

Men yoshlik paytlarimda bir kitobxon, bir muallif sifatida A. Oripov ijodini o'rgandim. Shoir she'rlarini yod oldim, hozirgacha unutganim yo'q. Yana-yana o'qim kelaveradi. Shoir buyuk xizmatlari uchun Vatanimiz tomonidan munosib taqdirlangan. 1993-yil O'zbekiston xalq shoiri, "Do'stlik" ordeni, Xalqlar do'stligi ordeni bilan mukofotlangan. 1998-yil O'zbekiston Qahramoni unvoni bilan mukofotlandi. Shoir O'zbek zamonaviy she'riyatining "Navoiyisi" edi. Shoir ijodi kitobxon o'quvchilari uchun ijod maktabi ko'zgu bo'lib xizmat qiladi. O'zbek xalqining jonajon farzandi, kuchli ruhiyat egasi, otash qalb shoir, Madhiyamiz muallifi 2016 yil 5 noyabrda 74 yoshda og'ir xastalikdan vafot etdi. Shoir buyuk xizmatlari uchun tarixda qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yillar armoni A. Oripov Toshkent

2. Adabiyot O. Hamrayeva Toshkent

3. Internet xabarlari

4. Кахарова, Н. Н. (2022). Морфонологические Явления В Отглагольных Словообразовательных Цепочках Современного Русского Языка. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(11), 141-150.